

ARAB PAREMIOLOGIYASIDA AYOL OBRAZI: SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV*Abdullayeva Shahnoza Bahodir qizi**Toshkent shahri Oriental Universiteti**Tillar1 kafedrası o'qituvchisi**Tel: +998992280442***Annotatsiya**

Ushbu maqolada arab xalq og'zaki ijodidagi ayollarga oid maqollar turli tematik guruhlar asosida tasniflanib, ularning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, ona siymosi, ayolning turmushdagi o'rni, oiladagi vazifalari hamda keksa ayollarga doir qarashlar ifodalangan maqollar alohida guruhlarda ko'rib chiqilgan. Tahlil natijasida arab xalq donishmandligida ayol obraziga berilgan baho, unga nisbatan shakllangan ijtimoiy, axloqiy va madaniy qarashlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ayollar, ona siymosi, oiladagi ayol, keksa ayollar, arab maqollari, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация

В данной статье пословицы арабского народного творчества, посвящённые женщинам, классифицированы по тематическим группам и подвергнуты семантическому анализу. В частности, рассмотрены пословицы, отражающие отношение к дочери, образ матери, роль женщины в браке и семье, а также восприятие пожилых женщин. В результате анализа выявлены особенности народной оценки женского образа, а также социальные, моральные и культурные представления, сложившиеся в арабской паремииологии.

Ключевые слова: женщины, образ матери, роль женщины в семье, пожилые женщины, арабские пословицы, устное народное творчество.

Abstract

This article presents a thematic classification and semantic analysis of Arabic folk proverbs related to women. Specifically, it examines proverbs addressing topics such as daughters, the image of the mother, the role of women in marriage and family life, and attitudes toward elderly women. The analysis reveals the cultural, moral, and social perceptions of women reflected in Arabic paremiology and highlights how female figures are evaluated in oral folk traditions.

Keywords: women, mother figure, role of women in the family, elderly women, Arabic proverbs, oral folklore.

Arab xalq maqollarida ayollar mavzusi muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqollar orqali arab jamiyatida ayollarga nisbatan shakllangan qarashlar, ularning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o'rni, shuningdek, ayolga xos fazilatlar va ularga qo'yilgan ijtimoiy talablar ifodalanadi. Mazkur maqolada arab xalq maqollarida ayollar obrazini yorituvchi iboralar tematik guruhlariga ajratilib, ularning semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Jumladan, ona siymosi, turmushga chiqish, oiladagi ayolning roli va keksa ayollar haqidagi maqollar asosida arab xalqining ayollarga nisbatan munosabati, qadrlash yoki tanqid qilish darajalari, ularning jamiyatdagi o'rni va unga berilgan baho kabi jihatlar o'rganildi.

Ona mehr-oqibat, sabr va fidoyilik timsoli. U bolasi uchun tinimsiz mehnat qiladi, uni himoya qiladi va to'g'ri yo'lga yo'naltiradi. Xalq maqollari onaning ulug' maqomini, uning cheksiz mehrini va hayotimizdagi bebaho o'rnini aks ettiradi. Quyida onalar haqida aytilgan eng ta'sirli maqollardan bir nechtasi jamlandi.

1. تَأبَى لَه ذَلِك بِنَاتُ النَّبِيِّ

Bunga yurak tomirlari yo'l qo'ymaydi.

Maqolning kelib chiqishi haqida Al-Maydoniy shunday sharh keltiradi: Bir kishi uylanib, xotini talabiga binoan onasini uyidan uzoqlashtirishga qaror qiladi. Onasini yirtqich hayvonlarga to'la vodiya olib borib tashlaydi. Keyin o'zini tanitmay, onasining oldiga keladi va uning yig'layotganini ko'rib so'raydi:

-Nega yig'layapsan?

-Onasi javob beradi: -O'g'lim meni bu yerga tashlab ketdi. Endi uni yirtqich hayvonlar yeb qo'yishidan qo'rquyapman.

Erkak hayron bo'lib: -U seni tashlab ketgan bo'lsa, nega u uchun yig'layapsan, nega unga qarshi duo qilmaysan?

Ona javob beradi: -Yurak tomirlari bunga yo'l qo'ymaydi. Bu rivoyat kelinning qaynona bilan bo'lgan salbiy munosabatini hamda onaning o'g'liga bo'lgan cheksiz muhabbatini ko'rsatadi.

Onaning farzandiga bo'lgan muhabbatini ifodalovchi maqol:

2. كُلْ خَنْفَسَ عِنْدَ أُمِّهِ غَزَالٍ

Har bir qo'ng'iz onasi nazdida kiyikdir.

¹الميداني ، مجمع الأمثال، ج 1، ص 182

²عبد القادر صالح. الأمثال العربية، لينا. دار المعارف، بيروت 2002 م، ص 210

O'zbekcha muqobili esa, Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, Kirpi bolasni yumshog'im der, yoki Quyon bolasini botirim der, It bolasini qoplonim der³. Bu maqol onaning farzandini qanday bo'lsa ham suyuqli, chiroyli va qadrli deb bilishini anglatadi. Onaning muhabbati bolasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'zgarmaydi.

6 مثل أكل الشحيمه 5 الأميمه 4 طق

Onaning urishi, saryog' yeyish kabidir.

O'zbek xalq maqolidan muqobili sifatida, “Enasi tepgan qulunning, eti og'rimas⁷” bo'la oladi. Ushbu ikki maqolda ona tomonidan berilgan jazoning yoki tanbehning mohiyatan og'riqli emasligi, balki mehr bilan qilingan tarbiya ekani tasvirlanadi. Har ikki maqolda ona siymosi mehr va tarbiyaning timsoli sifatida ko'rsatiladi. Bu maqollar har ikkala xalqning ona siymosiga bo'lgan iliq munosabatini, tarbiyani mehr bilan bog'lashini ko'rsatadi.

8 الفتيات همهن إلى الممات

Qizlarning tashvishi –o'limgacha.

Qiz bolalarning muammolari hayotining turli bosqichlarida davom etadi. Ularning tashvishi turmush bilan tugamaydi, ajralish bilan ham tugamaydi, uydaligida ham davom etadi. Agar ular uchun mas'uliyat ota-onasining zimmasida bo'lsa, bu mas'uliyat ularning tug'ilishidan boshlanadi va hayoti davomida davom etadi⁹. Bu maqol ayollar (ayniqsa qizlar) hayoti davomida doimiy e'tibor va g'amxo'rlik talab qilinishi haqida. O'g'il bolalar esa balog'atga yetganida mas'uliyatdan ozod bo'lishi mumkin, ammo qizlar har doim biror bir shaklda himoya va mas'uliyat ostida bo'ladi. Bu maqol arab jamiyatida qiz bolaga nisbatan ehtiyotkorlik, nazorat va muhofaza an'anasining ildizlarini ko'rsatadi.

³ Sh. Shomaqsudov, Sh. Shoraxmedov, Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lugati. Toshkent., B. 141

⁴ “طق” — bu “ضَرْبٌ” fe'lining lahjaviy shakli bo'lib, og'zaki tilda qo'llanadi.

⁵ “الأميمة” — bu “أم” (ona) so'zining tasg'ir shakli bo'lib, kichraytirish va mehr ifodasi uchun ishlatiladi. “الشحيمة” — bu “شحمه” (yog') so'zining tasg'ir shakli bo'lib, u ham ma'nodagi noziklik yoki kichiklikni bildiradi.

⁶ عبد الكريم جهيمان. الامثال الشعبية من قلب جزيرة العرب. الرياض- المملكة العربية السعودية. ١٤٠٢. ج 4. ص 245

⁷ Sh. Shomaqsudov, Sh. Shoraxmedov, Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lugati. Toshkent., B. 315

⁸ عبد الكريم جهيمان. الامثال الشعبية من قلب جزيرة العرب. الرياض- المملكة العربية السعودية. ١٤٠٢. ج 2، ص 55

⁹ O'sha manba. 2 juz, B.55

10 إقلب الجرة على فمها، تطلع البنت لأُمها

Ko'zani og'ziga ag'daring, qiz onasidek chiqadi.

Bu maqolning kelib chiqish tarixi bor, bir ayol har kuni uyda oziq-ovqat, ichimliklar tayyorlash uchun buloqdan ko'zalarga suv olish uchun borgan. Afsuski, u bir ko'za to'la suv ko'targan va u tez-tez uyga qaytayotganda qoqilib, to'plagan suvini yo'qotgan. Keyin u yana ko'zalarni to'ldirish uchun buloqqa qaytishga majbur bo'ldi. Bu uning uyiga suv olib kelishga kechikishiga sabab bo'ldi, va qaynonasi uni masxara qilgan. Bir kuni qaynona ayolni g'azablantirmoqchi bo'lib, go'zal deb ta'riflangan nabirasidan buloqqa borib, tez suv olib kelishni so'radi. U ayolga qizi, "buvining nevarasi" undan yaxshiroq ekanini isbotlamoqchi edi. Shunda u ko'zani qizga berib: "Borib, idishga suv to'ldirib, tezroq qaytib kel", dedi. Haqiqatan ham qiz shunday qildi va buloqdan idishni to'ldirdi. Ammo qaytib ketayotib, onasi qoqilgan yo'lda qoqilib ketdi, shunda ko'za sinib, suvdan ayrilib qoldi. Qiz qoqilganidan yig'lab qaytib keldi. Xullas, buvi taqdiridan noligancha, "Ko'zani og'ziga ag'daring, qiz onasidek chiqadi", dedi. Va shu erdan bu mashhur maqolning hikoyasi boshlandi 11.

أم لعشرة أطفال اقتصادية، وأم لطفل واحد مرتبة

O'nta farzandli ona tejamkordir, bitta farzandli esa sarosimalidir.

Bu maqol onalarning farzand tarbiyasidagi tajribasi va hayotga moslashuvchanligini ifodalaydi. Ko'p farzandli ona kundalik hayotda tartib va tejamlilikka odatlanadi, chunki u ro'zg'orni to'g'ri taqsimlashni va barcha farzandlariga yetarlicha e'tibor qaratishni o'rganadi. Aksincha, yolg'iz farzandli ona ba'zan ortiqcha xavotirga tushishi yoki hamma narsani ortiq darajada rejalashtirishga harakat qilishi mumkin. Bu maqol hayotiy tajribaning insonni yanada bardoshli va puxta qilib tarbiyalashini ham ko'rsatadi. Ko'p farzandli ona vaqt o'tishi bilan bolalar tarbiyasida yetuklashadi.

13. عند أمه بالبيت خبزته مدهونة بزيت 12 اللّي

Kimniki uyida onasi bo'lsa, noni yog'ga botirilgan non kabidir.

Bu Misr maqoli onaning farzand hayotidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Maqolning ma'nosi shuki, onasi bilan yashayotgan inson har tomonlama himoyalangan bo'ladi, uning hayoti qulay va shirin kechadi. Ona bolasi uchun hamisha g'amxo'rlik qiladi, unga mehruhabbat, iliqlik va baraka bag'ishlaydi. Bu maqol insonlarga onalarining qadri va duolarining qanchalik muhimligini eslatib turadi.

¹⁰ حسن أحمد السكيوي، نور المعرفة في الأمثال الشعبية، الطبعة الأولى، ليبيا: الهيئة العامة للثقافة، 2018م ص 9

¹¹ <https://www.youtube.com/watch?v=qD7GNn4p5ow>

¹² الذي ning Jazoir shevasidagi ko'rinishi.

¹³ <https://gate.ahram.org.eg/>

Xalq maqollarida ayol obraziga katta e'tibor berilgan. Ularda ayolning fe'l-atvori, oiladagi o'rni va jamiyatdagi roli aks etadi. Quyidagi maqollar aynan shu mazmunga oid.

بناث الرجال ما يشكّن ولا ينكّن

Mard ayollar shikoyat qilmaydi, yig'lamaydi.

Bu maqolda ayolning sabrli, matonatli va vafodor bo'lishi ideallashtirilgan. Ayniqsa, qiyinchiliklarga duch kelganda, u o'z erini yoki taqdirni ayblamasdan, barchasini sukutda ko'tarishi kerak degan qadriyat ilgari surilgan. Bu ayolga nisbatan jamiyatda mavjud bo'lgan qat'iy axloqiy me'yorlarni anglatadi.¹⁴

15قويت أخت مريم.

Maroyim¹⁶ opa kuchaydi.

Bu maqol hayotda uddaburon, tadbirkor va har qanday ishni uddalay oladigan ayollar haqida aytiladi. Ba'zi fazilatlar hamma ayollarda ham uchramaydi, ba'zilari mehribon va kamtarin bo'lsa, boshqalari jasoratli, tadbirkor va har qanday sharoitda ham muvaffaqiyatga erisha oladigan bo'lishadi. Bunday ayollar qiyin vaziyatlardan.

XULOSA

Arab xalq maqollarida ayol obrazining tasviri keng va ko'p qirrali bo'lib, ular jamiyatning qadimiy ijtimoiy, axloqiy va madaniy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Maqolalardan ayon bo'lishicha, ayol – ona, rafiqqa, kelin, keksalikda esa qaynona yoki mahalla kattasi sifatida turli bosqichlarda turlicha baholangan.

Arab xalq maqollarida ona obrazi ulug' va muqaddas timsol sifatida gavdalanadi. Ona — mehr-muhabbat, fidoyilik, sabr-toqat va donishmandlik manbai sifatida tasvirlanadi. Maqollarda u nafaqat oilaning tayanchi, balki jamiyat axloqiy qadriyatlarining asosiy targ'ibotchisi sifatida talqin qilinadi. Arablarning og'zaki ijodi orqali avloddan-avlodga o'tgan bu maqollar, onaning hayotdagi beqiyos o'rni va ta'sirini yuksak qadrlagan xalq ruhiyatini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, ona haqidagi maqollar orqali arab jamiyatining madaniy qarashlari, ijtimoiy tuzilmasi va ayolga nisbatan hurmati ko'zga tashlanadi. Bu maqollar xalq ma'naviyatining bir bo'lami sifatida ona sha'nini madh etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

¹⁴ عبد الكريم جهيمان. الامثال الشعبية من قلب جزيرة العرب. الرياض- المملكة العربية السعودية. ١٤٠٢ ج 2 ، ص 56

¹⁵ عبد الكريم جهيمان. الامثال الشعبية من قلب جزيرة العرب. الرياض- المملكة العربية السعودية. ١٤٠٢ ج 5، ص 330

¹⁶ Ayol kishining ismi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shoraxmedov, Hikmatnoma O'zbek maqollarining izohli lugati. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1990.
2. عبد الكريم جهيمان. الأمثال الشعبية من قلب جزيرة العرب. الرياض- المملكة العربية السعودية. ١٤٠٢ هـ
3. م 7200 عز الدين جلاوي. الأمثال الشعبية الجزائرية بسطيف، الجزائر: منشورات دار الثقافة لولاية سطيف
4. رابح خدوسي. موسوعة الجزائر في الأمثال الشعبية، دار الحضارة، 1997 م
5. قادة بوتارن. الأمثال الشعبية الجزائرية، ترجمة عبد الرحمان الحاج صالح، دار النهضة، ديوان المطبوعات الجامعية 2013 م
6. عبد القادر صالح. الأمثال العربية ط، 1 ، لبنان: دار المعارف، بيروت 2002 م
7. عبد الحميد بن هدوقة. أمثال جزائرية ، طبع بالمؤسسة الوطنية للثقافة، وحدة رعاية، الجزائر 1993م
8. م2008 جعكور مسعود. حكم وأمثال شعبية جزائرية دار الهدى،